



ROMANIY TAFAKKUR VA ROMAN-TETRALOGIYA MODELI

***Qo‘yliyeva Gulchehra Nazarqulovna
GulDU dotsenti***

ANNOTASIYA. Roman janriy shakllarini milliy-adabiy an’ana, qardosh va jahon xalqlari tarixiy romanchiligi bilan uyg‘unlikda, o‘ziga xoslik va badiiy mahorat nuqtayi nazaridan o‘rganishda nazariy ma’lumotlarni berishda ishonchli ilmiy manbalarga tayanilgani, qo‘yilgan muammoning aniq va yetarlicha dalillangani, qardosh xalqlar hamda dunyo adabiyotshunosligi yangi yo‘nalishlari va tahliliy usullari asosida ilmiy-nazariy asoslangani bilan belgilanadi.

Kalit so‘zlar. Roman-tetralogiya shakli, istiqlol davri romanchiligi, adabiy-metodologik qarashlar, badiiy-estetik konsepsiya, milliy romaniy tafakkur, qozoq nasri, milliy xarakter.

KIRISH

Roman-tetralogiya shakli tarixiylik tamoyili asosida yozilishi, tarixiy haqiqat olis va yaqin tarixda sodir bo‘lgan muayyan voqeа-hodisaning obyektiv va subyektiv tomonlarini e’tiborga olgan holda, qachon va qanday shart-sharoitlar negizida yuz bergenini ilmiy manbalar asosida aniq aks ettirgan bilim ekanligi ma’lum. O‘zbek adabiyoti romanchiligidagi roman-tetralogiya shakli yuzasidan izlanishlar kuzatilgani ma’lum, masalan, filologiya fanlari doktori, yirik tarjimashunos olim, shoir va adib Jumaniyoz Sharipovning “Xorazm”³⁸⁵ roman-tetralogiyasida Isfandiyorxon hukmronligi davri, ya’ni 1910-1918- yillar, shuningdek xorazmliklarning “fuqarolik urushi” davridagi mashaqqatli hayoti hamda o‘lkada sho‘rolar hokimiyatining o‘rnatalishi voqealari tasvirlandi. Muallif bu roman uchun material yig‘ish va uni yozishga qariyb o‘ttiz yillik umrini sarfladi. Ammo Jumaniyoz Sharipov tayangan adabiy-metodologik qarashlar endilikda eskirganligi bois, yozuvchining yaqin o‘tmishni asosan, qora ranglarda ko‘rish, sho‘rolar siyosatini yagona najot manbayi deb bilish bilan bog‘liq badiiy-estetik konsepsiysi ham o‘z ahamiyatini yo‘qotdi.

Ushbu maqolada esa qozoq nasrida istiqlolgacha bo‘lgan davrda ham roman-tetralogiya modeli mavjud bo‘lgani, Qozog‘iston Fanlar akademiyasi akademigi, filologiya fanlari doktori, Qozog‘istonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi Muxtor Avezov ham bu janr shakliga qo‘l urdi va “Abay yo‘li” roman-tetralogiyasini yaratdi. Qozoq realistik tarixiy romanchiligi taraqqiyotida Muxtor Avezovning alohida o‘rni bor. Shubhasiz, bu hol ma’rifatparvar shoir Abay Qo‘nonboyev hayoti misolida qozoq xalqining XIX asr II yarmidagi murakkab hayoti, asrlar

³⁸⁵ Шарипов Ж. Хоразм. Роман-тетралогия. 1-китоб. 1960; 2-китоб. 1970; 3-китоб 1974; 4-китоб 1976. – Тошкент: Бадиий адабиёт нашриёти; Шарипов Дж. Хорезм. Роман-тетралогия .1-3 кн. – М.: 1968-1976.

davomida turmush tarziga aylangan ko‘chmanchilik barham topishi davridagi tarixiy vaziyat-holatlar aks etgan “Abay yo‘li” roman-tetralogiyasining yuzaga kelishi bilan bog‘liqdir.

Ushbu tetralogiyaning birinchi va ikkinchi kitoblari dastlab “Abay” (1942; 1947), uchinchi kitobi “Oqin og‘a” (1950), to‘rtinchi kitobi esa “Abay yo‘li” (1952) tarzida nomlangan. Keyinchalik M.Avezov to‘rtala kitobga ham yaxlit tarzda “Abay yo‘li” degan umumiy sarlavha qo‘yishni ma’qul ko‘rgan. Tetralogiya har biri ikkita romanni o‘z ichiga olgan ikkita kitob holida (birinchi kitob 1942 va ikkinchi kitob 1956 yilda) nashr qilingan³⁸⁶.

MUAMMONI O‘RGANILGANLIGI

Asarda o‘rni bilan zamonaviy realistik romanchilikning psixologik roman, oilaviy-maishiy roman, ijtimoiy-falsafiy roman singari janriy shakllariga xos belgi-sifatlaridan ham foydalanilgan. Ammo muayyan roman janri ajratilar ekan, dastavval uning yetakchi belgisi aniqlab olinishi zarur³⁸⁷. Tabiiyki, “Abay yo‘li” romanida janrning tarixiy-biografiklik fazilati dominantlik qiladi.

“Abay yo‘li” roman-tetralogiyasi o‘z davrida qozoq olimi, akademik Kanish Satpayev tomonidan “qozoq xalqi hayoti va turmushining haqiqiy qomusi” sifatida baholandi. Lui Aragon adib poetik mahoratini baholarkan: “Zamonamizning eng buyuk shoirlaridan biri” -deya ta’riflaydi. Andre Stil esa, tetralogiyada “eng avval poeziyaning hidini sezasan”, deb yozadi³⁸⁸. Bunday milliy va jahoniy e’tiroflar ulug‘ qozoq adibining ushbu mavzuga alohida bir mehr-muhabbat, katta bilim va hayotiy-ijodiy tajriba bilan qo‘l urgani hamda poetik mahorat bilan tugatganini tasdiqlaydi.

Darhaqiqat, M.Avezov Markaziy Osiyo adabiyotida birinchilardan bo‘lib umr bo‘yi ko‘chmanchilik bilan shug‘ullanib kelgan, endilikda “yangi hayot” (Bu yerda xonlikning haddan oshgan zulmidan qutilish nazarda tutilgan. G.Q.) ostonasiga qadam qo‘yayotgan qozoq xalqining ijtimoiy-madaniy va ma’rifiy-axloqiy muammolarga to‘la yarim asrlik hayot tarzini keng qamrovli tarzda badiiy aks ettirdi. Roman-tetralogiya o‘z badiiy qudrati bilan XX asr kitobxonini hayratga soldi.

“Abay yo‘li” tetralogiyasining har bir kitobida mutafakkir Abay hayotining muayyan bir bosqichdagi davri badiiy tahlil qilinadi. Syujet voqeligi kitobdan-kitobga o‘tgan sari rivojlanib, bosh qahramon ham ma’naviy-ruhiy jihatdan kamol topib boradi. Muallif to‘rtala kitobni Abay timsolida gavdalangan yagona g‘oyaviy maqsad orqali kompozitsion yaxlitlikka birlashtiradi. U eskilik va yangilik o‘rtasidagi kurash orqali millatning o‘rta asrlardan beri davom etib kelayotgan “zulmat”dan nurafshon kunlarga chiqish va farovon hayotga erishish³⁸⁹ solnomasini yaratdi.

³⁸⁶ Ауэзов М. Путь Абая.и в двух томах. Том 1. 662 с; <https://dn790005.ca.archive.org/>; Его же. Путь Абая.и в двух томах. Том 2. 644 стр. <https://ia803105.us.archive.org/> В формате PDF.

³⁸⁷ Бахтин М.М. Эпос и роман (о методологии исследования романа) // Бахтин М.М. Эпос и роман. – СПб.: Издательство «Азбука», 2000. – С. 194-95.

³⁸⁸ Сейданов Қ. Мухтор Аvezov va Ўрта Осиё адабиёти. // Жаҳон адабиёти, 2017, 9-сон.

³⁸⁹ Бу ўринда адабнинг синфий нотенглилар, аёл-қизлар эрксизлиги, қалин эвазига сотилиши каби жихатларни кескин фошличилиши назарда тутилмоқда. (Г.К.)

Tetralogiyada qozoq elining qalin (mahr) berish, marhumni so‘nggi yo‘lga kuzatish singari qadimiy urf-odatlari, farzand tug‘ilishi, chaqaloqni belanchakka belash bilan bog‘liq xalq o‘lanlari, to‘y-marosimlarni o‘tkazish, mehmondo‘stligi, san’atsevarligi, samimiyati, hayot falsafasi, go‘zallikkha talpinishi, adolatga tashnaligi kabi ko‘plab fazilatlari orqali qozoq xalqining ma’naviy qiyofasi, milliy xarakteri yaratildi. Binobarin, bu nainki Abay markazida turgan tarixiy-biografik roman, balki shu xalqning dardlarini teran his qilgan, dard-iztiroblari, quvonch-tashvishlari, orzu-armonlari bilan yashagan ma’rifatparvar inson haqidagi tetralogiyadir. Boshqacharoq aytganda, Abay bir tomondan real tarixiy shaxs, ikkinchi tomondan esa, qozoq xalqi milliy xarakterini o‘zida mujassamlashtiruvchi adabiy qahramondir. Zotan, syujet voqeligi uning taqdiriga chambarchas bog‘liqlikda, atrofida sodir bo‘layotgan voqelik fonida to‘laqonli ochiladi³⁹⁰. U jamiyatning barcha qatlamlari bilan faol munosabatga kirishadi va davr muammolari girdobidagi faol inson sifatida turli rakurslardan ochiladi.

Jumladan, Muxtor Avezov mutafakkir shoir obrazini quyidagi yo‘sinlardan tasvirlaydi: a) ko‘ngli nozik va ojiz o‘smir; b) qalbi go‘zal talpinishlar og‘ushidagi oshiqlig yigit; c) otasi bilan murosa-madora yo‘lini izlagan, ayni chog‘da, undan farqli o‘laroq, xalq uchun najot manbayini ilm-ma’rifatda ko‘rgan farzand; d) mehribon oila boshlig‘i; e) xiyonat va aldonlar iskanjasida o‘rtangan, o‘z yaqinlaridan ajralib chuqur qayg‘uga botgan inson; f) yoshlarning ustoz-murabbiysi; g) xalqning eng yaqin dardkash do‘sti; i) faol kurashchi shoir.

Anglashiladiki, adib bosh qahramon ijodkor inson ekaniga alohida urg‘u bergen. Aynan shu o‘rinda tetralogiyaning tarixiy-adabiy, badiiy-ma’rifiy qimmati ham namoyon bo‘lgan. Muxtor Avezov asar nihoyasida bosh qahramon Abayni toshloq yerdan unib chiqib, chuqur ildiz otgan, o‘z shoxlari bilan muazzam cho‘qqilarga suyanib turgan, hayot va umr ma’nosidan saboq beruvchi keksa qayrag‘och (chinor) ga qiyoslaydi. Bahaybat keksa daraxt obrazi Asqad Muxtorning “Chinor”, Odil Yoqubovning “Uch ildiz” kabi romanlarida yetakchi poetik timsolga aylangan. Bu o‘rinda, Muxtor Avezovdek ulkan chinorning o‘zbek adiblari ijodiga muayyan ta’siri, adabiy izdoshlik namoyon bo‘lsa ajab emas.

Umuman, M.Avezovning poetik mahorati tufayli tetralogiya qozoq tarixiy-biografik romanchiligining yuksak cho‘qqisi bo‘lib qoldi. Albatta, asar yozilgan davr nazariy-metodologik qarashlari bilan bog‘liq tarzda, romanda muammolarga sinfiy yondashuv tamoyilining ta’siri sezilishidan ham ko‘z yumib bo‘lmaydi. Zotan, bu umumsho‘ro adabiyotiga xos xususiyat edi.

“Abay yo‘li” roman-tetralogiyasini Anna Nikitskaya rus tiliga o‘girdi. Ammo bu yozuvchi va tarjimon qatog‘onga uchragani bois, jurnalist, nosir, dramaturg Leonid Sobolyov bu asarni o‘z tarjimasi sifatida chop qildirdi. Mavzuga mehri ortgan Leonid Sobolyov “Abay” nomli

³⁹⁰ Ауэзов М. Мысли разных лет. – Алма-Ата, 1961; Его же: Как я работал над романами “Абай” и “Путь Абая” // в кн.: Ауэзов М. Абай Кунанбаев. Алма-Ата, 1967; Ауэзова Л. Исторические основы эпопеи “Путь Абая” – Алма-Ата, 1969; Фазилов К.Б. Историзм эпопеи Мухтара Ауэзова “Путь Абая”// Молодой учёный. – 2014. – № 7 (66) – С. 643-645.

tragediya yozdi. “Qozoq xalqining eposi va folklori” nomli ilmiy tadqiqotni ham amalga oshirdi.

Rus tilidagi mazkur nashr roman-tetralogiyaning yuzdan ortiq qardosh va noqardosh tillarga o‘girilishida manba vazifasini o‘tadi. Mirzakalon Ismoiliy tetralogiyadan “Tatyananing sahrodagи she’ri” nomli bir parchani o‘zbek tiliga o‘girdi. XX asrning 50-60-yillarida Zumrad Orifjonova asarni milliy tilimizga to‘liq tarjima qildi³⁹¹. M.Avezov tavalludining 110 yilligi munosabati bilan tetralogiya Anatoliy Kim tomonidan rus tiliga yangidan o‘girilib, chop etildi³⁹².

Anglashiladiki, M.Avezovning “Abay yo‘li” tarixiy-biografik roman tetralogiyasi nafaqat XX asr qozoq adabiyoti, balki jahon realistik nasrida ham o‘ziga xos e’tibor va e’tirofga sazovor bo‘ldi. Bizningcha, asarning bu qadar katta shuhrat qozonishida quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

a) M.Avezovning roman yozilguncha bo‘lgan davrda realistik nasrda o‘z qalamini charxlashi. Jumladan: “Qarash-qarash”, “Burgutli ovchi”, “Izlar”, “Yelkama-yelka” singari asarlarini yozish jarayonida to‘plagan ijodiy tajribalari hamda “Abay” dramasining yuzaga kelishi. Yozuvchining ushbu xayrli ishga katta tayyorgarlik, milliy g‘urur va ishtiyoq bilan qo‘l urishi.

b) M.Avezov tarixiy faktlarning kamligi bilan ro‘baro‘ kelgach, Abay haqida qozoq xalqi orasida tarqalgan rivoyat va hayotiy hikoyalarni yig‘ishi hamda o‘z badiiy niyatiga mos tarzda saralashi.

c) Shoirning she’r, qo‘shiq (o‘lan)larini xalq og‘zidan yozib olishi va tasniflashi.

d) Abay haqida ilmiy-tanqidiy maqolalar yozishi.

e) Ulug‘ mutafakkirning otasi (Qo‘nonboy), onasi (Uljon), Abayning o‘gay onalari, ya’ni otasining boshqa xotinlari (Dilda, Oykarim, Nurxonim) buvisi (Zuhra), akasi (Takejon), do‘sti (Erbo‘l), Abayga zamondosh qozoq shoirlari (Ko‘kpay, Avaz) kabi real tarixiy shaxslar hayotini atroflicha o‘rganishi. Ayrimlari bilan bevosita suhbatlashish orqali Abay hayotining noaniq qirralariga oydinlik kiritishi. Aksariyatini badiiy obraz sifatida asarga olib kirishi.

f) Abay badiiy asarlarida ko‘tarilgan poetik g‘oyalarga asosiy manba sifatida tayanib ish ko‘rishi.

NATIJA VA TAHLIL

Demak, yozuvchi deyarli tarixiy manbalar mavjud bo‘lmagan mavzuga qo‘l urib, tarixiy faktlarni qayta tiklash va ularga badiiy libos kiydirish yo‘lidan bordi. Shubhasiz, bu hol muammoga ham tadqiqotchi olim, ham yozuvchi sifatida yondashishni talab qilgan. Binobarin, roman-tetralogiya badiiy asar bo‘lishiga qaramasdan, unda keltirilgan faktologik ma’lumotlar qozoq xalqi tarixi va etnografiyasi haqida keng tasavvurlar berishi ma’nosida, muayyan ilmiy qimmat ham kasb etadi.

³⁹¹ Авезов М. Абай йўли. Ўздавнашр. Т., 1957. Б. 464.

³⁹² Ауэзов М. Путь Абая. / Пер. А.Кима. Алматы. ИД: «Жибек жолы» 2012. В формате FB2.

Qozoq olimi, akademik Zakiy Axmetov “Abay yo‘li” epopeyasining yaratilish tarixi va poetikasi”, “Muxtor Avezov roman-epopeysi”, “She’riy nutq nazariyasi”, “Abayning shoirlik olami” kabi tadtqiqotlarida Muxtor Avezov badiiy ijodi, xususan, “Abay yo‘li” romanini ham tahlilga tortdi.³⁹³. U adib arxivida saqlanayotgan qo‘lyozmalar, asarning qozoq va rus tillaridagi nashrlari bilan yaqindan tanishdi. Ularni Muxtor Avezov nasrida qozoq va rus adabiyotlari realistik tasvir usullarining ijodiy o‘zlashtirilishi nuqtayi nazaridan qiyoslab o‘rgandi. Olim “Abay yo‘li” qanday tug‘ilgan?” nomli maqolasida ta’kidlashicha, M.Avezov ilk ijodiy niyatida bu asarni trilogiya shaklida yozishni mo‘ljallagan. Biroq badiiy ijod jarayonida ilk tasavvurlar o‘zgargan. Chunki, voqeа-hodisalar ko‘lami nisbatan kengroq janriy shakl – tetralogiyani talab qilgan. Umuman, Zakiy Axmetov ushbu tetralogiya badiiy-estetik qimmatini belgilarkan, mutafakkir, insonparvar shoir Abay yashagan tarixiy davrga xos xususiyatlarning badiiy asardagi ishonchli tasvirlari, ya’ni hayot haqiqati va badiiy talqin mutanosibligi muammosiga diqqat qaratdi.

G.J.Bolatov “Abay yo‘li” epopeyasining poetik tahlili³⁹⁴ nomli o‘quv qo‘llanmasida ushbu tetralogiya mazmun-mohiyatini talaba yoshlarga yetkazishni nazarda tutdi. Roman-tetralogiyani tarixiy-adabiy jarayon kontekstida olib qarash, badiiy-estetik jihatdan baholash xususidagi qimmatli tavsiyalarini ilgari surdi.

Demak, bemalol aytish mumkinki, ushbu roman-tetralogiya qozoq abayshunosligida o‘z munosib bahosini oldi.

Mustaqillik davri mafkuraviy-estetik talablariga xos yangicha estetik tamoyillarga tayangan holda, “Ulug‘ saltanat” roman-tetralogiyasi misolida roman poetikasi masalasini imkon qadar oydinlashtirish, istiqlol yillarida azaliy o‘zaniga qaytgan milliy romaniy tafakkur miqyoslarini ko‘rsatish mumkin. Biz, adabiy-estetik qarashlarni inson va borliqni badiiy idrok etishdagi mental tafakkur tarzimiz hamda o‘zbek romani ichki rivojlanish tabiatini, Muhammad Ali poetik ifoda yo‘sindan kelib chiqib, milliy asosda sintez qilishga urindik.

Ma’lumki, jahon adabiyotshunoslige XX asrning ibtidosidayoq yangi tamoyillar asosida tozarishga kuchli ehtiyoj sezdi. Jadid adabiyotshunosligi birgina Cho‘lpon timsolida kuzatilganida ham “bir xillik”dan bezib, dunyo estetik tafakkuriga hamohang yangi yo‘llar qidirdi. Mutaraqqiy davlatlar adabiyoti ijodiy tajribalarini milliy asosda o‘zlashtirishga bel bog‘ladi. Albatta, sezilarli yutuqlarni ham qo‘lga kiritdi. Bemalol aytish mumkinki, XX asrda milliy estetik tafakkur qo‘s sh qutbli dunyoning bir burjida o‘z taraqqiyotini yangi tamoyillar asosida boshladi.

Ammo bunday intilishlarga tezda barham berildi. Borliqni yangicha badiiy idrok qilish, poetik ifodalash va estetik talqin qilish ta’qiqlandi. Totalitar imperiyaning adabiy-mafkuraviy siyosati jahonning sertarmoq ilmiy tizim va konsepsiyalari hamda amaliy tajribalaridan butkul yuz o‘girib, “sotsialistik realizm” deb nomlanuvchi soxta “estetik tizim”ni tanlashi g‘oyat

³⁹³Ахметов З. Өлең сөздін теориясы, Алматы, 1973; Шу мұаллиф: Абайдың ақындық әлемі, Алматы, 1995.

³⁹⁴ Болатова Г.Ж. Анализ поэтики эпопеи «Путь Абая»: учебное пособие. – Алматы: Қазақ университеті, 2020. – С.137.

taajjublanarli hol. Biroq, yetmish uch yil davomida bugungi postsovet makonlari adabiy-nazariy tafakkuri o‘sha sxolastik andaza (kanon) va qoliplar asosida boshqarildi.

XULOSA

Shubhasiz, o‘z davrida bunga oshkora qarshi chiqish imkonsiz edi. Buni to‘g‘ri tushunish va his qilish lozim. Masalan: XX asrning 60- yillarida “nisbiy erkinlik” davri boshlandi. Qatog‘onlik qurbanlari qisman oqlandi. Ammo o‘sha yillarda struktural poetika inkor etildi. 80-yillarga kelib sotsrealizm “ochiq sistema” deb e’lon qilindi. Go‘yoki bu metod hali yangi imkoniyatlarga boy ekani kashf etildi. Aslida esa, qisman o‘sha daqqiyunusdan qolgan metodologik qarashlar etagidan tutildi. Jahon maydonida esa, adabiy harakatchilik o‘zani o‘zgarib, adabiyotshunoslik butkul boshqa yo‘sinda rivojlandi.

Bizningcha, endilikda “ayb” va “aybdor” qidirish befoyda mashg‘ulot. Shunga qaramasdan, ayni muammo adabiyotshunos va munaqqid ichki butunligi, milliy-e’tiqodiy qalb ustunlari nechog‘lik mustahkamligi, ma’naviy-estetik jasorati masalalalariga kelib taqalishidan ham ko‘z yumib bo‘lmaydi. Tabiiyki, “yo‘qotilgan avlod” adabiy-nazariy tafakkur tarixini qayta idrok etishga kuchli ehtiyoj sezdi. Umuman esa, mustaqillik davrida ijod qilgan uch avlod ham o‘z izlanishlarini jadidlar boshlab bergen xayrli an’analar zanjiriga ulashga intildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Шарипов Ж. Хоразм. Роман-тетралогия. 1-китоб. 1960; 2-китоб. 1970; 3-китоб 1974; 4-китоб 1976. – Тошкент: Бадиий адабиёт нашриёти;
2. Шарипов Дж. Хорезм. Роман-тетралогия .1-3 кн. – М.: 1968-1976.
3. Ауэзов М. Путь Абая.и в двух томах. Том 1. 662 с; <https://dn790005.ca.archive.org/>; Его же. Путь Абая.и в двух томах. Том 2. 644 стр. <https://ia803105.us.archive.org/> В формате PDF.
4. Бахтин М.М. Эпос и роман (о методологии исследования романа) // Издательство «Азбука», 2000. – С. 194-95.
5. Сейданов Қ. Мухтор Авезов ва Ўрта Осиё адабиёти. // Жаҳон адабиёти, 2017, 9-сон.
6. Авезов М. Абай йўли. Ўздавнашр. –Т., 1957. –Б. 464.